

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING TUZULISHI

Eshboboyeva Ruxshona Adham qizi

Namangan davlat universiteti Yuridik fakultet talabasi

Ilmiy rahbar: O.Pulatov

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20309066>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyati, yaratilish tarixi hamda uning jamiyat va davlat hayotidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, Konstitutsiyaning tuzilishi, asosiy bo‘limlari va inson huquqlarini ta‘minlashdagi ahamiyati tahlil qilingan. 2023-yildagi yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning o‘ziga xos jihatlari ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, davlat, huquq, erkinlik, inson huquqlari, jamiyat, hokimiyat, qonun ustuvorligi, suverenitet

Annotation: This article discusses the essence, history, and significance of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. It analyzes the structure of the Constitution, its main sections, and its role in ensuring human rights and freedoms. The specific features of the new version adopted in 2023 are also examined.

Keywords: Constitution, state, law, freedom, human rights, society, power, rule of law, sovereignty

Аннотация: В данной статье рассматриваются сущность, история создания и значение Конституция Республики Узбекистан. Анализируются структура Конституции, её основные разделы и роль в обеспечении прав и свобод человека. Также освещаются особенности новой редакции Конституции 2023 года.

Ключевые слова: Конституция, государство, право, свобода, права человека, общество, власть, верховенство закона, суверенитет

Konstitutsiya (lotincha “Constitution” – tuzilish, tuzuk) – davlatning Asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi.

“Konstitutsiya” atamasi Qadimgi Rimdayoq ma‘lum bo‘lgan (imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Amir Temur “Tuzuklar”i Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo‘lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga kuchli ta‘sir o‘tkazgan.

Asosiy Qonunimiz yaratilishining murakkab va muhim, ayni chog‘da sharaflil solnomasiga nazar solar ekanmiz, hech shubhasiz, O‘zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo‘ldagi izlanishlari natijasi ekaniga komil ishonch hosil qilamiz.

Avvalambor, konstitutsiyaviy “bino”ni qurishda uch ming yillik milliy davlatchilik tajribasiga tayanilgan. Bugungi O‘zbekiston qadimgi Xorazm va So‘g‘diyona, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, o‘zbek xonliklari, ma‘rifatparvar ajdodlarimiz, xalqimizning tarixiy an‘analari va uning mustaqil davlat haqidagi ko‘p asrli orzusini mujassam etgan.

Shu o‘rinda Suveren O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini tayyorlash, muhokama etish, qabul qilish va uning amal qilishi yo‘lidagi 10 ta huquqiy qadamni bu boradagi eng muhim tarixiy voqealar sifatida sanab o‘tish lozim. Zotan, Konstitutsiyani yaratish tarixi – bu mustaqillik uchun kurashning uzviy tarkibiy qismidir.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi birinchi huquqiy qadam – o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishidir.

Ko‘plab harakatlar natijasi o‘laroq 1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi o‘z Konstitutsiyasiga ega bo‘ldi. Bu Konstitutsiya ko‘plab mehnatlar samarasi edi. U zamonaviy davlatlarning Konstitutsiyasidan ilhomlangan holda yaratildi. Shuningdek, tariximizdagi buyuk davlatlardan Amir Temurning “Temur tuzuklari” asaridan ham ko‘pgina davlat boshqaruviga oid ma‘lumotlar olingan. Ushbu qabul qilingan Konstitutsiya muqaddima 6 bo‘lim 26 bob 128 moddadan iborat edi.

Yaqin yillarda , hususan 2023-yil 30-aprelda bo‘lib o‘tgan referendum natijasida Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilindi. Ushbu yangi tahrirdagi Konstitutsiya muqaddima, 6 bo‘lim 27 ta bob va 155 ta moddadan iborat bo‘lib 2023-yil 1-maydan kuchga kirdi.

Muqaddima Konstitutsiyamizning mafkuraviy kirish qismidir. Konstitutsiya muqaddimasi xalqning orzu-intilishlarini ifodalaydi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o‘zida aks et-tiradi. Muqaddimadagi qoida va g‘oyalar keyinchalik konstitutsiya normalarida u yoki bu shaklda, ko‘rinishda o‘z o‘rnini topadi. Muqaddima “O‘zbekistonning yagona xalqi” tushunchasi bilan boshlanib, bu orqali xalqimizning yagona va bo‘linmasligiga urg‘u berilgan.

Konstitutsiyaning birinchi bo‘limi “Asosiy prinsiplar” deb nomlanib, “Davlat suvereniteti”, “Xalq hokimiyatchiligi”, “Konstitutsiya va qonunning ustunligi”, “Tashqi siyosat” boblariga ajratilgan. Konstitutsiyaning dastlabki bo‘limidagi prinsiplar davlat va jamiyat hayotining ustunlari hisoblanadi. Chunki ushbu bo‘limda davlatning boshqaruv va tuzilish shakli, davlat suvereniteti xususiyatlari belgilangan.

Konstitutsiyaning ikkinchi bo‘limi “Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlanadi. Mazkur bo‘limda davlat va fuqaro bir-biriga nisbatan huquq va burchlar orqali o‘zaro bog‘liqligi, inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari (yashash huquqi), fuqarolik masalalari, siyosiy (saylov huquqi), iqtisodiy (mulkdor bo‘lish huquqi), ijtimoiy (ta‘lim olish, mehnat qilish), madaniy va ekologik huquqlar hamda huquq va erkinliklar kafolatlari, fuqarolarning burchlari belgilangan.

Konstitutsiyaning uchinchi bo‘limi “Jamiyat va shaxs” deb nomlangan. Unda jamiyatning iqtisodiy negizlari, fuqarolik jamiyati institutlari, oila, bolalar va yoshlarga oid masalalar hamda ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslari mustahkamlangan.

To‘rtinchi bo‘lim “Ma‘muriy-hududiy va davlat tuzilishi” deb nomlangan, unda O‘zbekistonning ma‘muriy-hududiy tuzilishi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasining huquqiy holati alohida boblarda belgilangan. “Davlat hokimiyatining tashkil etilishi” deb nomlangan Konstitutsiyaning eng katta Beshinchi bo‘limi “O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi”, “O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti”, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi”, “Mahalliy davlat hokimiyati asoslari. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari”, “Saylov tizimi”, “Sud hokimiyati”, “Advokatura”, “Prokuratura”, “Moliya, pul va bank tizimi” hamda “Mudofaa va xavfsizlik” kabi boblarni o‘z ichiga olgan.

So‘nggi oltinchi bo‘lim esa Konstitutsiyani o‘zgartirish tartibiga bag‘ishlangan.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat va jamiyat hayotining eng muhim asoslarini belgilab beruvchi bosh huquqiy hujjatdir. U nafaqat davlat tuzilishi va hokimiyat tizimini, balki inson huquq va erkinliklarini, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarni ham mustahkamlaydi.

Konstitutsiyamizning yaratilishi xalqimizning uzoq tarixiy taraqqiyoti, boy davlatchilik tajribasi hamda mustaqillikka erishish yo‘lidagi intilishlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Unda qadimgi davlatchilik an‘analari, jumladan Temur tuzuklari kabi manbalarning ta’siri ham o‘z aksini topgan.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 2023-yildagi yangi tahriri zamonaviy talablar asosida inson qadri, huquqlari va erkinliklarini yanada ustuvor darajaga ko‘tardi. Bu esa mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

Umuman olganda, Konstitutsiya — bu xalq irodasi, milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar mujassam bo‘lgan asosiy hujjat bo‘lib, uning hayotimizdagi o‘rni beqiyosdir.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. Temur tuzuklari. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2018.
3. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi rasmiy sayti materiallari.
5. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy manbalari.
6. Lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.